

## THE IMPORTANCE OF A TECHNOLOGICAL MAP IN THE DESIGN OF LESSONS BASED ON QUEST TECHNOLOGY

Karshiyeva Dilnoza

Teacher, Samarkand XTXQTMOHM

### Annotation

This article is about improving the competence of teachers in designing lessons based on Quest technology and creating a technological map in the process of professional development.

**Keywords:** quest, educational technology, pedagogical technology, technological map, competence.

O'zbekistonda so'ngi yillarda barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasini moderenizatsiya qilish, sohani rivojlantirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108 qarorida Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, o'quvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, tizimda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida quyidagilar belgilab berildi:

-pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish;

dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

Shunday ekan, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarimizni uzluksiz kasbiy kompetentligini rivojlantirish, darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish kompetentligini takomillashtirish, ularni darslarini yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda loyihalashga o'rgatishga doir darslarni tashkil etish har bir professor-o'qituvchilar oldiga katta ma'suliyat yuklaydi.

Darslarni loyihalash-dars mashg'ulotlari bosqichlarini o'rinli pedagogik texnologiyalar asosida to'g'ri tizimlashtirish jarayonidir.

Bizga ma'lumki, darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars maqsadiga erishishning, dars samaradorligini oshirishda muhim jihati hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya- o'quvchilar va o'qituvchilar uchun qulay shart-sharoitlarni so'zsiz ta'minlash bilan o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish va o'tkazishda birgalikdagi pedagogik faoliyatning puxta o'ylangan modeli (V. M. Monaxov);

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida foydalanilayotgan pedagogik texnologiyalar darhol eskirayotgani va o'qituvchilar o'quvchilarni darslariga bo'lgan qiziqishlarini saqlab qolish, motivatsiyalarini oshirish uchun mustaqil izlanib, yangi-yangi pedagogik texnologiyalarni darslarida qo'llashga ehtiyoj tug'iladi.

Ta'lim jarayonida nisbatan yangi bo'lgan "Kvest" texnologiyasi asosida darslarini loyihalash aynan ta'lim oluvchilarni o'rganilayotgan fan, modul va mavzularni uzviyligini hamda uzluksizligini

ta'minlash, ta'lim jarayonida auditoriyani doimiy diqqatini jamlashga erishishda bir muncha samarali hisoblanadi.

Kvest so'zi- inglizcha "Quest" so'zidan olingan bo'lib-qidiruv, sarguzasht, izlanish degan ma'nolarni bildiradi.

[Kvest - bu o'yin elementlari, miya hujumlari va mashg'ulotlarni o'zida birlashtirgan, nisbatan yangi pedagogik texnologiya] - deydi AQShlik olim I. N. Falson.

Kvest texnologiyasi esa- kompyuter texnikasidan foydalanish mumkin bo'lgan, muammoni hal etishga qaratilgan, rolli o'yin elementlari bilan boshqichlari murakkabligini oshirib boriladigan sarguzasht o'yindir. Kvest texnologiyasi bir nechta ketma-ket topshiriqlar zanjiridan iborat, o'yin bosqichlari oddiydan murakkabligi orttirib boriladigan jumboq yechiga, muammoni hal etishga qaratilgan ta'lim texnologiyasidir. Aynan berilgan bosqichlar yechimi keying topshiriq kaliti bo'lishi kerak.

Darslarni tizimli tashkil etish, dars maqsadi erishishni oldindan prognozlashda darsning texnologik xaritasini tuzish muhim jarayondir.

**Texnologik xarita** – jadval shaklida bo'lib, turli xil sohalar bo'yicha ishlab chiqilishi rejalashtirilgan mahsulotni yaratilish bosqichlari ketma-ketligini rejalashtirish, texnologik ishlari tizimlashtirish jarayonidir.

Darsning texnologik xaritasi- dars jarayonida amalga oshiriladigan ishlarni oldindan tizimli bosqichli ketma-ketligini ishlab chiqich hamda darsda kutilayotgan natijani prognozlash jarayonidir. Demak har boshlanadigan ish rejasiz, texnologik xaritasiz natijasi samarali bo'lmaydi.

Kvest darslarini texnologik xaritasini ishlab chiqish.

<b>Elementlar tarkibi</b>	<b>Kvestni ishlab chiqish talablari</b>
<i>Sarlavha</i>	Qisqa, jozibali va original bo'lishi kerak
<i>Vaqt</i>	Qisqa ( bir darsga) yoki uzoq (Bir chorak, yil davomida) vaqtga mo'ljallangan bo'lishi mumkin.
<i>Ishtirokchilar soni</i>	Yakka, kichik guruh, jamoa
<i>Ihtirokchilar yoshi</i>	MTT tarbiyalanuvchilari, o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar
<i>Kvest turi</i>	Chiziqli, muammoli, halqali
<i>Makon</i>	Sinf xonasi, sinfdan tashqarida (Sport maydonlari, dala hovli)
<i>Didaktik vositalar</i>	Krossvord, kartochkalar, chizma-grafiklar, plakatlar, xarita, flomaster, internet saytlari ro'yxati, qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati, mavzuga doir videoroliklar va hk.
<i>Asosiy maqsad</i>	Kvest o'yin asosiy maqsadi sifatida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ilmiy madsadlari belgilanadi.
<i>Ishtirokchilar faoliyatini baholash mezonlari</i>	Mezon o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan vazifalar turiga va bajarilgan ta'lim "mahsulotiga" qarab ishlab chiqiladi. Shunday qilib, kvest darslari bosqichlari uchun shart bajarilishi yoki bajarilmagan taqdirda jarimalar mentor tomonidan tanishtirib boriladi.
<i>Asosiy vazifalar</i>	Bosqichlar ketma-ketligi uzviylikini ta'minlash, birinchi topshiriq javobi ikkinchi bosqich kaliti bo'lib xizmat qilishi kerak. Topshiriqlar ketma-ketligi osondan qiyinga qarab borishi kerak bo'ladi.
<i>Kvestning natijasi</i>	Natija asosiy vazifani bajarish bilan bog'liq bo'lishi kerak, masalan: muammoni hal qilish, jumboqni echish, kashfiyot qilish va H. K.



<i>Asosiy maqsad</i>	Kvest o'yin asosiy maqsadi sifatida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, ilmiy madsadlari belgilanadi.
<i>Ishtirokchilar faoliyatini baholash mezonlari</i>	Mezon o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan vazifalar turiga va bajarilgan ta'lim "mahsulotiga" qarab ishlab chiqiladi. Shunday qilib, kvest darslari bosqichlari uchun shart bajarilishi yoki bajarilmagan taqdirda jarimalar mentor tomonidan tanishtirib boriladi.
<i>Asosiy vazifalar</i>	Bosqichlar ketma-ketligi uzviyligini ta'minlash, birinchi topshiriq javobi ikkinchi bosqich kaliti bo'lib xizmat qilishi kerak. Topshiriqlar ketma-ketligi osondan qiyinga qarab borishi kerak bo'ladi.
<i>Kvestning natijasi</i>	Natija asosiy vazifani bajarish bilan bog'liq bo'lishi kerak, masalan: muammoni hal qilish, jumboqni echish, kashfiyot qilish va H. K.

Shunday qilib kvest texnologiya asosida darslarni texnologik xaritasini yaratish kvest darslarini muhim jihati hisoblanadi. Bunda o'qituvchining kasbiy kompetentligini doimiy ravishda takomillashtirish, rivojlantirish, har bir o'yin elementlaridan kelib chiqib tuzish talab etiladi. Bunda malaka oshirish jarayonida aynan fanni o'qitish modullari tarkibidagi mavzularga singdirish kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6108 qarori
2. Баймурзина Гульсина Хамматовна "Деятельность учителя при проектировании урока математики в соответствии с ФГОС ООО" презентация.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:Vikipediya:Interwikisiz\\_maqolalar](https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkum:Vikipediya:Interwikisiz_maqolalar)